

U Ayjun

(*Shanxay, Xitoy*)
airongwu@126.com

“Bir makon, bir yo‘l”ga xizmat ko‘rsatuvchi strategik tillar

Abstrakt

Ushbu maqola o‘zbek tilini Xitoyda o‘qitish va o‘rganishga bag‘ishlangan. 2013-yilda XXR raisi Si Szinpin “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini ilgari surdi va mamlakatimizning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi asosida o‘zbek tili va Markaziy Osiyoning boshqa tillari yo‘nalishini ochish va mutaxassislar tayyorlash masalasi o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xitoyning Shanxay chet tillar universiteti Shanxay shahrining istiqboldagi rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda “Bir makon, bir yo‘l” milliy tashabbusini qo‘llab-quvvatladi va o‘zining til o‘rgatish imkoniyatlaridan foydalanib, universitetda o‘zbek tili ta’limi yo‘nalishini tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: “Bir makon, bir yo‘l”, milliy tashabbus, loyiha, strategik til, o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi.

Strategic Languages that Serve the “One Belt, One Road” Initiative

Abstract

This article is dedicated to the study and teaching of the Uzbek language in China. President Xi Jinping proposed the “One Belt, One Road” initiative in 2014. In the context of China’s “One Belt, One Road” initiative, the issue of setting and talent training of Uzbek and other Central Asian languages is very urgent. Utilizing its own advantages in teaching, SISU connects with the “One Belt, One Road” initiative, serves the needs of Shanghai’s urban development, and actively establishes its Uzbek majors. The following include a detailed description of the reasons for establishing Uzbek undergraduate majors in SISU, the status quo of establishing the major, and the problems facing the language teaching and talent training of Uzbek.

Key words: “One Belt, One Road” initiative, national initiative, project, strategic language, Uzbek language education.

Kirish

Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro savdo-sotiq aloqalari, mahsulotlar almashinushi, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda hamkorlik o'rnatgani tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lida harakatlangan karvonlar, sayyohlar moddiy va madaniy boyliklarni tashish bilan bir qatorda shaharlarning iqtisodiy yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu ma'noda bugun ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan aloqalarni yanada jonlantirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shu maqsadda 2013-yilda Xitoy Xalq Respublikasining Bosh kotibi Si Szinpin "Bir makon, bir yo'l" konsepsiyasini taklif qilgan edi. Uning asosiy maqsadi yo'l bo'yи mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlik, ishonch, siyosiy-iqtisodiy va madaniy integratsiya, o'zaro hurmatga asoslangan teng manfaat, ishchan sharoit va mas'uliyatli jamoani birqalikda tashkil etishdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun, avvalo, "Besh kommunikatsiya"ni amalga oshirish kerak bo'ladi, bu – "siyosiy muloqot, yo'l aloqalari, to'siqsiz savdo, pul muomalasi va xalqaro aloqalar"dir. Shubhasiz, "Besh kommunikatsiya"ning asosida o'zaro muloqot, axborot almashish vositasi bo'lgan til yotadi. Tilni bilmay turib "siyosiy muloqot" qilish qiyin, xalqlar o'rtasidagi aloqalar haqida gapirish ham noo'rin. Shuningdek, bugun hamkorlik aloqalarida tijorat, iqtisodiy hamkorlik dunyo miqyosida rivojlanib borar ekan, til erkin savdo va pul muomalasida ham katta o'rin tutadi, iqtisodning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab mamlakatimizda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi asosida o'zbek tili kabi strategik tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shanxay chet tillar universiteti Davlat rahbarining "Bir makon, bir yo'l" milliy tashabbusiga tayangan holda Shanxay shahrining rivojlanish ehtiyojlari hamda universitet til o'rgatish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zbek tili ta'lim yo'nalishini ochdi. Quyida o'zbek tili ta'lim yo'nalishining ochilish zarurati, sabablari, yo'nalishning hozirgi holati, shuningdek, o'zbek tilini o'qitish va o'rganishda duch kelinayotgan muammolar batafsil bayon qilinadi.

O'zbek tili ta'lim yo'nalishiga ehtiyoj va sabablar

1. "O'zbek tili" ta'lim yo'nalishining ochilishi – "Bir makon, bir yo'l" milliy tashabbusiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liqligi.

O'zbekiston – "Bir makon, bir yo'l" bo'yida joylashgan muhim strategik ahamiyatga ega mamlakat. 1992-yil yanvar oyida Xitoy va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon har ikkala mamlakat o'rtasida birin-ketin "Xitoy va O'zbekiston

o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik shartnomasi", "Xitoy-O'zbekiston" strategik hamkorligining 2014-2018-yillarga mo'ljallangan rivojlanish rejası" kabi muhim tarixiy hujjatlar imzolandi va ikki tomonlama munosabatlarning siyosiy-huquqiy asoslari mustahkamlandi. Ikki tomon hamkorlikda "Bir makon, bir yo'l" dasturi orqali milliy strategik hamkorlik mexanizmlarini yangilash va faollashtirish, o'zaro aloqalar va xavfsizlik borasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga erishildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Bosh kotib Si Szinpin 2016-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi chog'ida "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini bиргаликда qurish Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning yorqin va asosiy yo'nalishi" ekanini ta'kidlab o'tadi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi qariyb 7,34 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilgi ko'rsatkichdan 28,9% ga o'sdi va O'zbekiston tashqi savdosi umumiyligi hajmining 19,2% ini tashkil etdi. Shundan Xitoy eksporti taxminan 4,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 44,8% ga o'sgan; import 2,74 mlrd. AQSH dollari, 8,7% ga o'sgan; Xitoy savdo balansi 1,86 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo hamkori, eng yirik import manbai va eng yirik eksport yo'nalishi maqomini saqlab qolishda davom etmoqda.

Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga 9 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritgan. Bu investitsiyalar neft, gaz, kimyo, energetika va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, strategik infratuzilmani rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish uchun ajratilgan. Xitoy - Markaziy Osiyo 4-yo'nalishdagi gaz quvurlarining barchasi O'zbekiston hududidan o'tgan. 2019-yilning dekabriga qadar O'zbekistondagi Rossiya korxonalari 1812 ta bo'lib, chet el korxonalari soni jihatidan birinchi o'rinda tursa, Xitoy korxonalari 1611 ta bo'lib, ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda.

Ko'rindaniki, mamlakatimizda o'zbek tili mutaxassislariga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Xitoyda faqat bitta oliy ta'lim muassasasida o'zbek tili bakalavr yo'nalishi rasman ochildi, ammo yo'nalish bitiruvchilari soni kamligi tufayli jamiyatdagi o'zbek tili mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirishning iloji yo'q. Shunga ko'ra o'zbek tili yo'nalishining ochilishi, avvalambor, "Bir makon, bir yo'l" milliy rivojlanish strategiyasining ehtiyoji hisoblanadi.

2. O'zbek tili ta'lim yo'nalishining ochilishi universitet taraqqiyoti va joylarga xizmat ko'rsatish ehtiyojlariga muvofiqligi.

Yangi sharoitda Shanxay chet tillar universiteti "Bir makon, bir yo'l" milliy tashabbusiga faol xizmat ko'rsatish maqsadida birinchilardan bo'lib "Turli tillar +" ilg'or xalqaro toifadagi kadrlar tayyorlash strategiyasi, innovatsion ta'lim modeli g'oyasini ilgari

surdi. Shuning uchun, o'zbek tili ta'lif yo'naliشining ochilishi – universitetning "Umumiste'molda bo'limgan tillar" va "Turli tillar+" g'oyasining amalga tatbiq qilinishi, yangilik yaratish ruhidagi keng dunyoqarashga ega, turli tillarni biladigan, o'z kasbining ustasi bo'lgan xalqaro miqyosdagi mutaxassislarini tayyorlash bilan Shanxay shahrining rivojlanish maqsadlariga xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

3. O'zbek tili ta'lif yo'naliшining ochilishi mamlakat siyosatidagi o'zgarishlarga hamohangligi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgach, birin-ketin o'z til siyosatlarini amalga oshirdilar. O'zbekiston 1989-yil 21-oktabrda, hali sovet ittifoqi tarkibida bo'la turib, o'zining "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonunini qabul qildi. Unga ko'ra o'zbek tili davlat tili, rus tili esa xalqaro so'zlashuv tili maqomini oldi. Shanxay chet tillari universitetida o'zbek tili ta'lif yo'naliشining ochilishi O'zbekistonning davlat tili siyosati va milliy tildan foydalanishdagi o'zgarishlar bilan hamohangdir.

O'zaro hamkorlik natijalari

Shanxay chet tillari universiteti va O'zbekistonning oliy ta'lif muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va almashinuv doirasi faol ravishda olib borilmoqda. Jumladan, xalqaro miqyosda quyidagi uchrashuvlarni ko'rsatish o'zbek tili ta'lif yo'naliشining ochilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi:

- 1) 2015-yil 24-oktabr kuni kotib Jiangfeng O'zbekiston Oliy majlisi senati raisining o'rribbosari Svetlana Artikova bilan uchrashdi;
- 2) 2017-yil 21-mart kuni Shanxay chet tillari universitetida O'zbek tili ta'lifi hamda Xitoy va O'zbekiston munosabatlarining 25 yilligiga bag'ishlangan seminar o'tkazildi;
- 3) 2017-yil 22-avgust kuni kotib Jiangfeng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha Davlat maslahatchilaridan iborat delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi;
- 4) 2017-yil 2-dekabr kuni kotib Jiangfeng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Vladimir Norov bilan uchrashdi (hozirda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Bosh kotibi);
- 5) 2018-yil 17-18-noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Vladimir Norov (hozirda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Bosh kotibi) Shanxay chet tillari universitetiga tashrif buyurib, to'rtinch "Buyuk ipak yo'lidagi umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, madaniyat va ta'lif" xalqaro ilmiy anjumanida ishtirok etdi;
- 6) 2019-yil 19-24-dekabr kunlari Shanxay chet tillari universiteti, Markaziy Osiyo tillari fakulteti dekanasi U Ayjun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi taklifiga binoan xalqaro

kuzatuvchi sifatida O'zbekiston Parlament saylovlariada qatnashdi.

Universitetlararo hamkorlik:

1) 2014-yil oktabr oyida Shanxay chet tillari universiteti va Samarqand Davlat chet tillari instituti hamkorligida Samarqand Konfutsiy institutini ochish to'g'risidagi kelishuv imzolandi va 2014-yil 27-noyabrda Samarqand Konfutsiy instituti rasman ochildi;

2) 2014-yil 27-noyabrda Shanxay chet tillari universiteti prorektori Joucheng va Samarqand davlat chet tillari instituti o'zaro hamkorlik shartnomalarini imzolashdi;

3) 2015-yildan shu kungacha Shanxay chet tillari universiteti Samarqand Davlat chet tillari instituti bilan hamkorlikda 5 marotaba "Buyuk ipak yo'lidagi umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat" xalqaro ilmiy anjumani o'tkazildi, 2015, 2016, 2017, 2019-yillarda anjuman Samarqand Davlat chet tillari institutida o'tkazilgan bo'lsa, 2018-yil 17-noyabr kuni Shanxay chet tillari universitetida o'tkazildi;

4) 2016-yil 12-yanvarda Shanxay chet tillari universiteti O'zbekiston jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan hamkorlik shartnomasini imzoladi;

5) 2017-yil iyun oyida Shanxay chet tillari universiteti Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlik shartnomasini imzoladi;

6) 2018-yil 5-iyun kuni Shanxay chet tillari universiteti va O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o'zaro hamkorlik shartnomasini imzolashdi.

Shanxay chet tillari universitetida o'zbek tili ta'lim yo'nalishining ochilishi

Shanxay chet tillari universiteti Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo tillari instituti O'zbek tili mutaxassislarini yetishtirish vazifasini o'z zimmasiga oldi va Xalq ta'limi vazirligi roziligi bilan o'zbek tili bakalavr ta'lim yo'nalishini ochdi. Quyida o'zbek tili ta'lim yo'nalishining ochilishi bilan bog'liq tajribalar va ta'lim yo'nalishining maqsadi va taqdim etilgan kurslarning batafsil tavsifi keltiriladi.

1. O'zbek tili ta'lim yo'nalishi ochilishi bilan bog'liq tajribalar:

Shanxay chet tillari universitetida o'zbek tili ta'lim yo'nalishining ochilishi birdan paydo bo'lgan emas. Yo'nalish rasman ochilguniga qadar tayyorgarlik ko'rildi, zaruriy o'quv-me'yoriy hujjatlar yaratildi. Jumladan:

2015-yil oktabr oyida universitet va rus tili fakulteti ko'magida o'zbek tili darslari tashkil etildi. 2015-yil oktabr oyidan 2016-yilning iyun oyigacha ikki semestr davomida o'zbek tili darslari o'tildi. O'rganuvchilar asosan rus tili fakulteti, tillar tadqiqoti instituti,

Markaziy Osiyo tadqiqotlar markazi ustozlari va magistrantlaridan iborat edi;

2016-yil mart oyida o'zbek tili ta'limentarying yangi kurslari tashkil etildi va bu 2016-yil dekabr oyida yakuniga yetdi. Kursda universitet rus tili fakulteti ustoz va magistrleri, universitet Sharq tillari fakulteti ustoz va talabalari, Fudan universiteti tarix-geografiya bo'limi ustoz va talabalari o'zbek tilidan ta'l'm olishdi;

2016-yil sentabrdan 2017-yil iyungacha o'zbek tili universitetining barcha bakalavr bosqich talabalari uchun fakultativ fan sifatida ochildi. Fanning nomi "O'zbek tili asoslari" (1-2) bo'lib, ikki semestr davomida o'qitildi va kurs talabalarining katta qiziqishiga sazovor bo'ldi.

2016-yil iyul oyida universitetimiz rasman ta'l'm vazirligiga o'zbek tili ta'l'm yo'naliшini (bakalavr) ochish tashabbusi bilan chiqdi va zaruriy hujjatlarni taqdim qildi. 2017-yil 18-martda ta'l'm vazirligining rasmiy saytida universitetda o'zbek tili ta'l'm yo'naliшi ochilishi e'lon qilindi. Rejaga ko'ra har 4 yilda bir marta talabalar qabul qilinadi.

2018-yilning sentabrida o'zbek tili ta'l'm yo'naliшining ilk talabalari ta'l'm jarayonlariga qabul qilindi. Talabalar soni 11 nafardan iborat. Ular o'zbek tili bilan bir qatorda qo'shimcha til sifatida rus tilini ham o'rganishadi. Talabalar bo'sh vaqtlarida turli tadbirdarda ishtirok etishadi va unda o'zbek tili ustozlari ko'magida o'rgangan o'zbekcha qo'shiq, o'zbekcha raqs va yod olgan she'rlari bilan qatnashadi va boshqa til yo'naliшlari talabalariga O'zbekiston haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim qilishadi.

2018-yil 16-noyabrdan universitetimizda o'zbek tili ta'l'm yo'naliшining tantanali ochilish marosimi, 15-21-noyabr kunlari esa O'zbekiston madaniyati haftaligi o'tkazildi. Madaniyat haftaligi kunlari davomida turli tadbirdar o'tkazildi. Unda mutaxassislarning ma'ruzalari, o'zbekistonlik diplomatlari bilan yuzma-yuz uchrashuvlar, xitoylik va o'zbekistonlik talabalar ishtirokida turli madaniy tadbirdar, o'zaro madaniy almashinuv marosimlari o'tkazildi, o'zbek milliy filmlari namoyish qilindi. Bu o'zbek tili yo'naliшi talabalarida va tashrif buyurgan mehmonlar uchun o'zbek xalqi madaniyati bilan tanishishlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2. O'zbek tili ta'l'm yo'naliшining maqsadlari va o'qitiladigan fanlar:

Shanxay chet tillar universitetida o'zbek tili bakalavriat ta'l'm yo'naliшi rasman ochilganiga ikki yil bo'ldi. Ushbu ta'l'm yo'naliшining asosiy maqsadi: yuksak insoniy fazilatlar, yuksak ilmiy salohiyat va kasbiy mahorat, sog'lom fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shuningdek, rus tilidan tashqi ishlar, iqtisodiyot, madaniyat, ommaviy axborot

vositalari, ta'lim, ilmiy tadqiqot, davlat organlari kabi yo'nalishlarda tarjimonlik qilish, tadqiqot ishlarini olib borish, ta'lim berish, ish boshqarish kabi vazifalarni bajara oladigan yuqori malakali o'zbek tili mutaxassislarini tayyorlaydi.

Ushbu ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan asosiy fanlar quyidagilar: O'zbek tili asoslari 1-4, O'zbek tili grammatikasi, O'zbek tilida o'qish, O'zbek tili audiovizual darslar, Yuqori darajali o'zbek tili audiovizual darslari, Yuqori darajali o'zbek tili 1-2, O'zbek tili tarjima nazariyasi va amaliyoti, O'zbekiston jamiyati va madaniyati, O'zbek tilida suhbat, Rus tili asoslari 1-4, Yuqori darajali rus tili 1-3, Rus tili audiovizual darsilari, Rus tilini eshitish darslari kabi. Shuningdek, ushbu ta'lim yo'nalishi talabalarining bilimini yanada oshirish va ularni O'zbekiston sharoiti va madaniyati bilan yanada yaxshiroq tanishtirish maqsadida uchinchi kursni O'zbekistondagi Oliy ta'lim muassasasida o'qitish rejalashtirilgan.

3. Shanxay chet tillari universiteti o'zbek tili ta'limi va kadrlar tayyorlashda yuzaga kelayotgan muammolar.

Shanxay chet tillari universiteti oldida o'zbek tili bo'yicha kadrlarni tayyorlashda quyidagi muammolarga duch kelinmoqda:

1) O'qituvchilar yetishmasligi.

Ayni paytda mamlakatda o'zbek tili ta'lim yo'nalishini bitirgan xitoylik mutaxassislar yo'q, shu tufayli universitetda mazkur yo'nalishdata'lim beruvchi o'qituvchilarga ehtiyoj katta. Universitetda xitoylik o'zbek tili o'qituvchisi bo'lмагани учун fakultetda faqat ikki nafar o'zbekistonlik o'qituvchi faoliyat olib bormoqda. Ulardan biri universitetimizning xalqaro ishchisi, ikkinchisi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetidan tashrif buyurgan xorijiy ekspert-ustoz.

Mazkur o'quv yilida o'zbek tili o'qituvchilariga bo'lган ehtiyoj yanada ko'proq sezilmoqda. Buni o'zbek tili mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv soatlarining ko'pligi hamda o'quv yuklamalarni bajarish asosan ikki nafar pedagog-xodimning zimmasiga tushayotgani bilan izohlash mumkin.

2) Talabalar oldiga qo'yilgan vazifalarning murakkabligi.

Talabalarning asosiy mutaxassisligi o'zbek tili, shuningdek, ular birinchi kursning ikkinchi semestridan boshlab rus tilini ham o'rganishadi. Talabalarga har ikki til boshlang'ich darajadan boshlab o'rgatiladi. Ular universitetga kirishdan oldin faqat ingliz tilini o'rgangani, o'zbek va rus tillari ular uchun yangi til ekanligini inobatga olsak, ularning oldida turgan o'quv vazifasining qanchalik murakkabligini anglash qiyin emas.

3) O'quv qo'llanma va yordamchi adabiyotlar taqchilligi. Hozirda mamlakatda bakalavr bosqichi talabalari uchun darsliklar yaratilmagan, yordamchi adabiyotlar ham yetarli emas. Fakultetimiz

ayni vaqtida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlikda bakalavr bosqichining turli kurslariga mos keladigan darsliklarni yaratish ustida ish olib bormoqda. Shuningdek, keljakda xitoycha-o'zbekcha, o'zbekcha-xitoycha lug'at kabi yordamchi adabiyotlar yaratishga bo'lgan talab ham dolzarbligicha turibdi.

Universitet kutubxonasida o'zbek tilidagi kitoblar soni juda kam. Ularning aksariyati hamkorlikdagi universitetlar tomonidan taqdim qilingan. Hozirda universitet kutubxonasi o'zbek tilidagi kitoblardan sotib olmoqda, lekin ularning soni juda kam. Keljakda O'zbekistondan kitob olib kelish yo'llarini izlash va universitetga o'zbek tilidagi kitoblar sonini yanada ko'paytirish zarur bo'ladi.

4) Hamkorlikdagi universitetlar soni oz hamda hamkorlik yo'nalishlari yetarli emas. Ayni vaqtida, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston davlat iqtisodiyot va diplomatiya universiteti va Samarqand davlat chet tillari instituti bilan universitetlararo hamkorlik bitimlari imzolangan. Keljakda talabalar almashinushi, pedagog-xodimlarning malakasini oshirish, ilmiy hamkorliklar olib borish uchun O'zbekistonning tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, hamkor universitetlar sonini ko'paytirish va hamkorlik sifatini oshirish nazarda tutilgan.

Xulosa

Mamlakatimizda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi zamirida o'zbek tili ta'lim yo'nalishini yaratish, iste'dod egalarini tarbiyalash masalasi juda dolzarb bo'lib turibdi. Shanxay chet tillari universiteti o'zining til o'qitish imkoniyatlaridan foydalaniib, "Bir makon, bir yo'l" milliy tashabbusi ehtiyojlariga va Shanxay shahri ehtiyojlariga xizmat qilgan holda, o'zbek tili ta'lim yo'nalishi kabi Markaziy Osiyo strategik ta'lim yo'nalishlarini ochib, rasman bakalavr bosqichiga talabalar qabul qildi va ayni paytda kerakli darsliklar tuzish ishlari bilan jiddiy shug'ullanmoqda. O'zbek tili mutaxassislarini tayyorlash sohasida izlanishlar olib borilmoqda va ma'lum darajada o'quv tajribasiga ham ega bo'ldi. Shanxay chet tillari universiteti singari o'zbek tili mutaxassisligini ochgan yoki ochish arafasida turgan universitetlar turli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sanab o'tilgan muammolarni yengib o'tishga e'tibor qaratishi zarur. Shuningdek, o'zbek tili kabi strategik tillar ta'limini yo'nga qo'yish, mamlakatimiz "Bir makon, bir yo'l" tashabbusiga xizmat ko'rsatish uchun O'zbekistondagi hamkor oliy ta'lim muassasalari bilan pedagogik-ilmiy tadqiqotlar bo'yicha aloqalarni yanada mustahkamlash zarur.

Adabiyotlar

- 中华人民共和国驻乌兹别克斯坦共和国大使馆经济商务参赞处 · 2019年1—11
<http://uz.mofcom.gov.cn/article/jmxw/201912/20191202926114.html>.
刘若玮编译 越来越多中企对投资乌国兴趣浓厚 <https://mp.weixin.qq.com>.
- Саадуллаев, Д. 2002. «Русский язык в Узбекистане: состояние и перспективы». *Русский язык за рубежом* 4 (184): 120-125. Москва.
- Закон Республики Узбекистан “О государственном языке”. 1990. (Право и СМИ Центральной Азии). <http://medialaw.asia/document>.
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*. 2015. Toshkent: O'zbekiston NMIU.

References

- The Economic and Commercial Counsellor>s Office of the Embassy of the People>s Republic of China in the Republic of Uzbekistan. 2019. <http://uz.mofcom.gov.cn/article/jmxw/201912/20191202926114.shtml>.
- Compiled by Liu Ruowei, more and more Chinese companies are interested in investing in their home country. <https://mp.weixin.qq.com>.
- Saadullaev, D. 2002. «Russkij jazyk v Uzbekistane: sostojanie i perspektivy». *Russkij jazyk za rubezhom* 4 (184): 120-125. Moskva.
- Zakon Respublik Uzbekistan “O gosudarstvennom jazyke”. 1990. (Pravo i SMI Centralnoj Azii). - <http://medialaw.asia/document>.
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*. 2015. Toshkent: O'zbekiston NMIU.

Muallif haqida: Ayjun U – rus tili va adabiyoti fanlari doktori, dotsent, Markaziy Osiyo tillari fakulteti dekani, Shanxay chet tillari universiteti Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti.

Iqtibos uchun: Ayjun, U. 2020. “Bir makon, bir yo'l”ga xizmat ko'rsatuvchi strategik tillar”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 38–46.

About the author: U Ayjun – Doctor of Russian Language and Literature, Associate Professor, Director of the Faculty of Central Asian Languages, Shanghai University of Foreign Languages, Institute of Russia, Eastern Europe and Central Asia.

For citation: Ayjun, U. 2020. “Strategic Languages that Serve the “One Belt, One Road” Initiative”. *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 38–46.